



EDUCATIONAL REFORMS, INVESTMENT, AND INTERNATIONAL COOPERATION IN NAVOI, BUKHARA, AND SAMARKAND REGIONS FROM 1998 TO 2021

Fazliddin Erkinovich Tuyev

Independent researcher, DSc

Associate Professor, Bukhara State Pedagogical Institute

E-mail: fazli1820bek@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Education system, investment program, vocational college, academic lyceum, preschool education, public-private partnership, international cooperation, educational reforms, material and technical base, Navoi, Bukhara, Samarkand.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: This article analyzes the large-scale measures taken in the Republic of Uzbekistan to modernize the education system, strengthen its material and technical base, and expand international cooperation in 1998–2021. Using the example of Bukhara, Navoi, and Samarkand regions, it covers state and international investments in preschool education, general secondary education, vocational and academic lyceums, public-private partnership mechanisms, and construction, reconstruction, and equipment work carried out in educational institutions. Issues such as professional development, attracting foreign experience, and updating the content of education are also covered in detail.

1998–2021 YILLAR DAVOMIDA NAVOIY, BUXORO VA SAMARQAND VILOYATLARI TA'LIMDAGI ISLOHOTLAR, INVESTITSIYA VA XALQARO HAMKORLIK

Fazliddin Erkinovich Tuyev

Mustaqil izlanuvchi, DSc

Buxoro davlat Pedagogika instituti dotsent

E-mail: fazli1820bek@gmail.com

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, investitsiya dasturi, kasb-hunar kolleji, akademik litsey, maktabgacha ta'lim, davlat-

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1998–2021 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya

xususiy sheriklik, xalqaro hamkorlik, ta'lim islohotlari, moddiy-texnik baza, Navoiy, Buxoro, Samarqand.

qilish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari misolida maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar va akademik litseylar tarmog'iga yo'naltirilgan davlat va xalqaro investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda ta'lim muassasalarida amalga oshirilgan qurilish, rekonstruksiya va jihozlash ishlari qamrab olinadi. Shuningdek, malaka oshirish, xorijiy tajribalarni jalb etish va ta'lim mazmunini yangilash kabi masalalar ham atroflicha yoritiladi.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ, ИНВЕСТИЦИИ И МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В НАВОЙСКОЙ, БУХАРСКОЙ И САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТЯХ С 1998 ПО 2021 ГОД

Фазлиддин Эркинович Туев

Самостоятельный исследователь, DSc

Доцент Бухарского государственного педагогического института

E-mail: fazli1820bek@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Система образования, инвестиционная программа, профессиональный колледж, академический лицей, дошкольное образование, государственно-частное партнёрство, международное сотрудничество, образовательные реформы, материально-техническая база, Навоийская, Бухарская, Самаркандская области.

Аннотация: В статье анализируются масштабные меры, принятые в Республике Узбекистан по модернизации системы образования, укреплению её материально-технической базы и расширению международного сотрудничества в 1998–2021 годах. На примере Бухарской, Навоийской и Самаркандской областей рассматриваются государственные и международные инвестиции в дошкольное образование, общее среднее образование, профессиональные и академические лицей, механизмы государственно-частного партнерства, а также проводимые работы по строительству, реконструкции и оснащению образовательных учреждений. Подробно освещаются такие вопросы, как повышение квалификации, привлечение зарубежного опыта и обновление содержания образования.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini tubdan isloh qilish va uning infratuzilmasini yangilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, ta’lim muassasalarini zamonaviy jihozlash, yangi o‘quv binolari qurish, ta’lim mazmunini yangilash va o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha keng qamrovli davlat dasturlari ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

Natija va muhokama. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada ragbatlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3651-sonli qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Buxoro viloyatida 2018-2019 yil manzilli ro‘yxatga kiritilgan hamda davlat xususiy sherikchilik asosida bitim imzolangan jami: 71 ta loyihalarga umumiy qiymati 144,4 mlrd. so‘mlik imtiyozli kredit ajratilgan. 2019-yilning dekabriga qadar dastur doirasida jami 71 ta tashabbuskorlarga 117,6 mlrd. so‘mlik imtiyozli kredit mablag‘lari ajratildi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 35,8 mlrd. so‘mlik 17 ta loyihaga resurs mablag‘lari ajratilishi talab etilib, ushbu mablaglarning moliyalashtirilishi hamda 88 ta MTMlarning to‘liq ishga tushishi natijasida 8394 ta bolalar qamrab olindi va 1056 ta yangi ishchi o‘rinlari yaratilgandi[1]. Samarqand viloyatida esa 2016-yil Investitsiya dasturi asosida davlat budjeti hisobidan 1,9 trln. So‘m ajratilib, 191 ta ob‘ektlarda qurilish, rekonstruksiya va ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan. 112 mlrd. so‘m mablag‘ hisobidan 54 ta umumta’lim maktablari, 9 ta kollej, 49 ta bolalar sporti, 11 ta sog‘liqni saqlash muassasalarida qurilish va ta’mirlash ishlari amalga oshirilib, foydalanishga topshirilgandi[2]. 2017-yilda esa Investitsiya dasturi asosida jami: 3 trln. So‘mlik 251 ta ijtimoiy soha ob‘ektlarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va kapital tamirlash belgilangandi. Jumladan, 69 ta umumta’lim maktablari, 12 ta kasb-hunar kollejlari, 13 ta sog‘liqni saqlash muassasalari, 44 ta ichimlik suvi va 59 ta bolalar sporti rekonstruksiya va kapital tamirlashga mo‘ljallangandi[3]. 2020-2021 yillar Samarqand viloyatida umumiy qiymali 41,6 mlrd. so‘m miqdordagi 16 taloyha amalga oshirilgan. Jumladan, -maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 4 ta loyiha 10,5 mlrd. so‘m, -umumta’lim maktablarida 5 ta loyiha 18,2 mlrd. so‘m, -o‘rta masus ta’lim muassasalari 3 ta loyiha 7,2 mlrd. so‘mlik loyihalar amalga oshirilgan[4]. Bu loyihalar asosida ta’lim muassasalarini rekonstruksiya va kapital tamirlashga hamda jihozlash maqsadida fiydanib, ta’lim tarbiya jarayoni riojlangan.

Ta’lim mazmunini belgilovchi DTS va o‘quv dasturlarini takomillashtirish maqsadida 2004-2009 yillarda bosqichma-bosqich tajriba-sinovdan o‘tkazilgan. Umumta’lim fanlari bo‘yicha mavjud DTSlari yangidan tahrir qilinib, o‘quv dasturlar modernizatsiya qilingan. Darslar quyidagi tillarda olib borilgandi: qirg‘iz, qozoq, tojik, turkman, qoraqalpoq tili va adabiyoti, 8-sinflarda rus adabiyoti, 4 va 8-sinflarda mehnat ta’limining 5 ta yo‘nalishi, 5-7 sinflarda informatika fanlaridan DTSlari yangidan yaratilgandi[5]. Shuni takidlash joizki Navoiy viloyat maktablarida ta’lim oltita (respublikada ytti (Navoiyda 2017-yildan ta’lim ytti)) tilda olib borilgan. Ta’lim tizimini

rivojlantirishga bo'lgan e'tibor tufayli viloyatida istiqomat qilayotgan turli millat vakillari o'z ona tillarida gazeta o'qishga muvaffaq bo'lganlar. Uchquduq tumanida qozoq va rus tilida, Tomdi tumanida qozoq tilida, Konimex tumanida qozoq va qoraqalpoq, Nurota tumanida o'zbek va tojik tillarida gazetalar chop etilgan[6].

AKSELS yoki Amerika O'zbekiston ta'lim va til o'rganish bo'yicha xalqaro Tashkilot tomonidan ingliz tili o'qituvchilari o'rtasida tanlov e'lon qilinib, g'oliblarni mukofotlash va Amerikaga tajriba o'rganish, malaka oshirish uchun o'z hisobidan yuborishni tashkil qilganlar. 1999-2000 yillardagi II-turda g'olib bo'lgan Karmana tumani, 5-maktab o'qituvchisi Gavhar Rahimova, Qiziltepa tumani 38-litsey internat o'qituvchisi Gulzira Aslonova, Konimex tumani 2-maktab o'qituvchisi Nazira Hotamovalar kompyuter, ksereks apparati hamda 200 dollarlik kitoblar bilan mukofotlanganlar[7].

Ta'lim sohasidagi tashqi aloqalar rivojlanib borishi tufayli Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 12-maktab o'qituvchisi Ozoda Qodirova Amerikaga 1.5 oylik. Navoiy tumani 3-maktab fransuz tili o'qituvchisi Baxrom Obloqulov, 8-maktab o'qituvchisi Inobat Xamroeva, navbahorlik Narzullo Xaydarov, Nurota tumani 7-maktab o'qituvchisi Abduxamid Safarovlar Fransiyaga 1 oylik muddatga, Xatirchi tumani 5-maktab o'qituvchisi Abdulla Salomov, karmanalik o'qituvchi Mukarram Xusenovalar Germaniga borib tajriba almashib kelgandilar.

2004-yil Navoiy viloyatida o'tkazilgan "Maktablar kuni"da va xayriya tadbirlarida o'ta-onalar hamda homiylar tomonidan jami 3 mlrd. so'm mablag' hisobiga 86380 nusxa darslik va 3166 nusxa badiiy adabiyotlar olinib, joylardagi kutubxonalar fondiga topshirilgan. 2004-yilning 14-oktabr holatida viloyatda 4 ta yangi maktab qurib foydalanishga topshirilgan. Navbahor tumanida "Tog'-kon metallurgiya kombinati" tomonidan 1950,0 mln. so'mga 6-sonli maktabning yangi binosi qurilib, eng zamonaviy o'quv jihozlari bilan jihozlangan. Qolaversa, "O'zbekiston temir yullari kompaniyasi" tomonidan Uchquduq tumanida 671 mln. so'm qiymatga ega bo'lgan yangi maktab qurilgan. O'zbekiston Respublikasi va Osiyo Tarakkiyot Banki tomonidan imzolangan "o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish" loyixasi asosida rahbar xodimlar va o'qituvchilarni malakasini oshirish maqsadida 37 nafar rahbar, pedagoglar chet davlatlarda malaka oshirib qaytganlar. Xususan, Tomdi, Konimex qishlok xo'jalik kasb-hunar kollejlarning maxsus fan o'qituvchilari 2004-yil 8-maydan 15-maygacha Germaiyaning Alpen shahridagi CLAAS – akademiyasida malaka oshirishgan[8].

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'limni joriy etish eng muhim vazifalardan biri etib belgilangandi. Uzluksiz ta'lim g'oyasiga muvofiq, to'qqiz yillik umumiy majburiy ta'lim bilan o'rta maxsus, akademik litseylar hamda kasb-hunar kollejlardagi uch yillik maxsus ta'limni o'zida mujassam etgan o'n ikki yillik ta'lim tajribasi respublikada joriy etilgan edi. Shu maqsadda respublikada 1998-yil 1-sentabrda 15 ta akademik litsey va 20 ta kasb-

hunar kolleji o'z faoliyatini boshlagan. Ta'lim jarayonlari rivojlanishi bu sohada tashqi hamkorlik aloqalarning taraqqiy topishiga alohida e'tibor qaratilishi natijasida, 2001-yil respublikada 46 ta akademik litsey va 260 ta kasb-hunar kolleji tashkil etilgan. 1998-2000 yillarda bunday yangi ta'lim muassasalarini bunyod etish uchun 135 mlrd. so'm mablag' sarflangan. Tizimga chet el investitsiyalarini jalb etish va xalqaro hamkorlik bo'yicha ham salmoqli ishlar amalga oshirilgandi. 2000-yilda Osiyo Taraqqiyot banki 57 mln., Yaponiya hukumati 58 mln. AQSh dollarlik imtiyozli kredit ajratgan. Germaniya texnikaviy hamkorlik jamiyati ishtirokida 5 ta kasb-hunar kollejida ayrim mutaxassisliklar bo'yicha tajribaviy loyihalar amalga oshirilgan. Koreya hukumati tomonidan ajratilgan 35 mln. AQSh dollarlik imtiyozli kredit hisobidan 200 dan ortiq akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quv jihozlari, kompyuterlar, lingofonlar, darsliklar bilan ta'minlangandi hamda pedagoglar va muhandis-pedagoglarning malakasi oshirilgan edi[9].

O'zbekiston Respublikasida o'quvchilarni ta'lim olishi jarayonlarini yangi texnologiyalar asosida ta'minlash maqsadida kasb-hunar kollejlarini moddiy-texnik bazasini zamonaviylashtirish maqsadida rivojlangan mamlakatlar Banklarining imtiyozli kreditlarini jalb qilingan holda Navoiy viloyatida 2001-yilda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 673,2 mln. so'mlik o'quv jihozlari hamda qishloq xo'jalik texnikalari bilan jihozlantirilgan. Shundan, 2001-yilda 9 ta kasb-hunar kolleji va 2 ta akademik litsey 400.6 mln so'mlik Koreya hukumatining imtiyozli krediti hisobidan zamonaviy o'quv va boshqa jihozlar bilan ta'minlangan[10]. Buxoro viloyatidagi Vopkent maishiy xizmat kasb-hunar kolleji Janubiy Koreyaning imtiyozli krediti hisobidan o'quv ustaxonasiga kompyuter, multimedia proektori, yupes, printer, skaner kabi zamonaviy texnikalar EPSON, Lexmark, D-Link korxonalarining mahsulotlari bilan ta'minlangandi. 2002-yilda ishga ishga tushirilgan maskur kasb-hunar kollejida tikuvchilik o'quv ustaxonasi ham mavjud bo'lgan. Ustaxonada "Brotner" rusumli zamonaviy tikuv dastgohi, dazmollash stoli, kompyuterlashtirilgan tikuv mashinalari, yo'rmalash mashinasi, maneken kabi texnikaviy vositalar o'rnatilgandi[11]. Buxoro yuridik av maishiy xizmat kasb-hunar kolleji esa 2010-yilda Janubiy Koreyaning imtiyozli krediti hisobiga moliyalashtirilgan "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish" loyihasiga muvofiq kollejda multimedia hamda radiotexnika va televizion apparaturalarga xizmat ko'rsatish maxsus o'quv xonasi tashkil etilgandi. 2 ta sport zali va sport maydonchalari hamda sheyling xonasi tashkil qilingandi[12]. Samarqandda 2001-2007 yillar davomida Janubiy Koreya tomonidan viloyat kollejlarni moddiy texnik bazasini rivojlantirish maqsadida 2 marotaba imtiyozli kreditlar ajratilgandi. 2001-2003 yillar oralig'ida Samarqand viloyatida 17 ta kasb-hunar kollejini jihozlash uchun jami 2 mln. 417 ming 700 AQSh dollar, 2004-2007 yillarda 1 mln. 127 ming 800 AQSh dollaridagi imtiyozli kreditlar ajratilgan[13].

Bundan tashqari, viloyatda 2000-yil Qo'shrabot, Bulung'ur va Ishtixon Baxrin hamda Samarqand qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejlari moddiy texnik bazasini boytish maqsadida Yaponiya mamlakatining 509 mln. 343 ming AQSh dollarilik imtiyozli krediti hisobidan qoplangan. Qolaversa, 2001-yilda ushbu davlatning 234 ming 100 AQSh dollari granti hisobidan Urgut qurilish va milliy hunarmandchilik kasb-hunar kolleji zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan. 2001-yil viloyatdagi Sartepa turizm kolleji va Poyariq qishloq xo'jalik kolleji Osiyo Taraqqiyot Bankining 4 mln. 343 ming AQSh dollari hisobidan jihozlantirilgandi[14]. Samarqand viloyat O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim boshqarmasining tashqi hamkorlik natijasida, Polsha davlatining 1 mln. 648 ming 900 AQSh dollarilik imtiyozli kreditlari hisobidan 9 ta o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari[15] hamda Germaniya federativ respublikasi KBV Bankining 1 mln. 781 ming yevrolik imtiyozli kredit hisobidan 7 ta O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan hamda rekonstruksiya qilingan[16].

Buxoro iqtisodiyot va bank kolleji xalqaro hamkorlik borasidagi yutuqlari ham katta. Ta'lim maskani 1995-yilda "Yevroosiyo" fondining 12 ming AQSh dollari miqdoridagi grantni yutib olib, 1999-yilda kollej kadrlar tayyorlash bo'yicha "O'zbekistonda yuoshlang'ich professional ta'limni qo'llab-quvvatlash" loyihasini tajriba o'quv majmuasiga aylangan. O'zbekiston-Germaniya qo'shma loyihasi sinalgan hamkorlik asosida 1999-2000 o'quv yillaridan boshlab ilk bor "Ofis menejeri" mutaxassisligi bo'yicha o'quvchilar qabul qilingan. Shu guruhlariga dars beruvchi o'qituvchilar bir necha bor Germaniyada shuningdek, Pavlodor, Almati, Bishkek va boshqa xorijiy davlatlarda malaka oshirish kurslarida tahsil olganlar. "Ofis menejeri" loyihasini amalga oshirish maqsadido Germaniya Texnik markazi (STM) tomanidan ajratilib mablag'lar hisabidan dars jarayonida qo'llaniladigan texnik jig'ozlar, kompyuterlar, skaner, kseroks televizor va boshqa jihozlar olingandi. Kollejga Buxoro oziq-ovqat va yngil sanoat texnologiyasi instituti hamkorligida Tasis-Tempus dastur giranti ham yutib olingan edi[17].

2004-yilda Buxoro avtomobillar va yo'llar kolleji qurilishiga 2 mlrd. 400 mln. so'mlik mablag' sarflangandi. Yangi kollejni tashkil qilinishi natijasida, 40 ta fan, 4 ta o'quv, 3 ta kompyuter xonasi, 4 ta fan laboratoriyasi tashkil qilingan. 2004-yil Buxoroda bunday kollejlari soni 46 tani tashkil qilgan[18]. 2009-yilga qadar Navoiy viloyatidagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mahalliy budjet hisobidan 93,3 mlrd. so'mlik, chet el investitsiyalari hisobidan 142,0 mln.AQSh dollari miqdorida o'quv-laboratoriya jihozlari va asbob-uskunalar xarid qilingandi. Jumladan, qishloq xo'jalik yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari 50 tasi Yaponiya Hukumati krediti, 18 tasi Osiyo taraqqiyot banki krediti hisobidan jihozlantirilgandi[19].

Umumiy o'rta ta'lim bilan qamrab olish bo'yicha mintaqaviy tafovutlar mavjud emas. 2001-2013 yillarda majburiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi unga kirishda mintaqaviy tafovutlarni ancha qisqartirgandi. 2001-yilga nisbatan 2013-yilda o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim

muassasalariga kirayotganlar soni Toshkent shahri, Sirdaryo, Jizzax viloyatlarida ikki martadan, Andijon, Namangan, Xorazm, Farg‘ona viloyatlarida uch martadan ortiqroqqa ko‘paydi, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 4–5 marta oshgandi. 2013-2014 o‘quv yilarida Zarafshon vohasida 288 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritib, shundan, Navoiy viloyatida 47 ta (44,0 ming kishiga), Buxoro viloyatida 80 ta (83,3 ming kishiga), Samarqand viloyatida 161 ta (183,9 ming kishiga) mo‘ljallangan kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritgandi[20].

Xulosa. 1998–2021 yillar mobaynida O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi sezilarli darajada yaxshilandi. Xalqaro hamkorlik, jumladan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Polsha va Osiyo taraqqiyot banki kabi tashkilotlar ishtirokida amalga oshirilgan loyihalar, zamonaviy jihozlar va o‘quv metodik vositalar bilan ta’lim muassasalarini ta’minlashga xizmat qildi.

Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlari misolida ko‘rinib turibdiki, investitsiya loyihalari nafaqat ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, ko‘p millatli aholiga ona tilida ta’lim berish va o‘qituvchilar malakasini oshirish sohalarida ham muhim natijalarni berdi. Shu asosda ta’lim sifati va qamrovini yanada oshirish imkoniyati yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1459-fond, 1-ro‘yxat, 1669-yig‘ma jild, 56-varaq.
2. Samarqand viloyat hokimligi joriy arxivi, 1552-fond, 1-ro‘yxat, 2911-yig‘ma jild, 9-varaq.
3. Samarqand viloyat hokimligi joriy arxivi, 1552-fond, 1-ro‘yxat, 2911-yig‘ma jild, 11-varaq.
4. Samarqand viloyat hokimligi joriy arxivi, (2021-yilgacha), 02-02/271-02-02/317-yig‘ma jild, 21-varaq.
5. Jonixonov M. Maktabga e’tibor–kelajakka e’tibor. // Xalq so‘zi. 2009-yil, 19-avgust, №-163. -B. 4.
6. Xoliqulov D. Do‘stdik maskani. // Xalq so‘zi, 2001-yil, 5-iyul, № 131, -B. 1.
7. Urchinov J. Xorij bilan hamkorlik. // Do‘stlikbayrog‘I, 2000-yil 10-noyabr.
8. Navoiy viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro‘yxat, 667-yig‘ma jild, 35-varaq.
9. Muxlis. Yangi ta’lim - taraqqiyot tayanchi. // Xalq so‘zi. 2001-yil 15-avgust, №-159-160. -B. 1-2.
10. Navoiy viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro‘yxat, 560-yig‘ma jild, 39-varaq.; Navoiy viloyat davlat arxivi, 287-fond, 1-ro‘yxat, 16-yig‘ma jild, 5-varaq.
11. Saloiov H. E’tibor samarasi. // Buxoronoma. 2011-yil 26-oktabr №-86. -B. 1.

12. Ibrohimov I. Kollejda o'qiyotganimdan xursandman. // Buxoronoma. 2011-yil 13-aprel, №-30. -B. 3.
13. Samarqand viloyat O'rta maxsus, kasb-hunar boshqarmasi joriy arxiv. 2008-yil hisoboti. 3-yig'ma jild, 18-varaq.
14. Samarqand viloyat O'rta maxsus, kasb-hunar boshqarmasi joriy arxiv. 2003-yil hisoboti, 23-yig'ma jild, 37-varaq.
15. Samarqand viloyat O'rta maxsus, kasb-hunar boshqarmasi joriy arxiv. 2006-yil hisoboti 18-yig'ma jild, 93-varaq.
16. Samarqand viloyat O'rta maxsus kasb-hunar boshqarmasi joriy arxiv ma'lumoti. 2009-yil 29-dekabr.
17. Ibrohimov I. Xalqaro hamkorlik asosida. // Buxoronoma. 2011-yil 13-aprel, №-30. -B. 3.
18. Muhamedov H. Ozodlikdan qudrat olgan yurt. // Xalq so'zi. 2006-yil 21-iyun, №-118. -B. 2.
19. Navoiy viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 966-yig'ma jild, 186-varaq.; Navoiy viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 976-yig'ma jild, 207-211-varaqlar.
20. Nazarov N. Kelajakka e'tibor. // Buxoronoma. 2013-yil 3-aprel, №-25. -B. 5.; Axunova Sh.N., O'zbekistonda umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sifatini oshirish masalalari. // Zamonaviy Ta'lim / Sovremennoe Obrazovanie 2015, 9-son. -B. 8-17.